

**TILLARNI O'QITISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR O'RNI VA
JAHON TAJRIBASI**

Mamanabiyeva Shahrizoda

Uzbekistan State World Languages University

English faculty 2, Department of English practical disciplines N2, teacher

Razzaqova Madinaxon

Uzbekistan State World Languages University

English language and literature faculty, 1st year student

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada xorijiy tillarni, xususan, ingliz tilini qay usulda yanada samaraliroq o'rganish va o'rgatish hamda bu jarayonda turli xil jahon tajribalarini tatbiq qilish usullari haqida so'z boradi. Zamnaviy innovatsiyalar va texnikalardan unumli foydalanish, yangi metodiklarni qo'llash orqali tilni o'rganish emas, o'zlashtirish masalalari tatqiq qilinadi.

Kalit so'zlar: kommunikatsiya, innovatsiya, Booknomy, „Refold” metodikasi, chet tili, ko'nikma.

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются способы изучения и преподавания иностранных языков, в частности английского, а также способы применения в этом процессе различного мирового опыта. Будет изучено эффективное использование современных инноваций и методик, новых методов погружения в язык вместо его запоминания.

Ключевые слова: коммуникация, инновация, Букномика, метод «Рефолд», иностранный язык, навык.

ABSTRACT

This article discusses ways of learning and teaching foreign languages in particular English, and how to apply various worldwide experiences in this process. Effective use of modern innovations and techniques, new methods in the immersion into a language instead of memorizing in it will be explored.

Key words: communication, innovation, Booknomy, "Refold" method, foreign language, skill.

Bugungi davrda globallashuv jarayoni sababidan ham tillarni o'qitish va o'rganishga bo'lган talab hamda ehtiyojlar ortib bormoqda. Ayni paytda tilga bo'lган ahamiyatning dolzarbligini uning ko'pgina mamlakatlarda ta'lim sohasining ajralmas qismiga aylanganida ham ko'rish mumkin. Shu sababdan ham tillarni zamnaviy texnologiyalardan foydalangan holda qay usulda yanada samaraliroq o'qitish masalasi

muhimdir. Ko'rindiki, hozirda qo'llanayotgan an'anaviy usullar endilikda o'zini unchalik oqlamayapti va yangicha o'qitish metodiklarini ishga solish hamda bu borada bir qancha yetakchi mamlakatlar tajribasidan kelib chiqib, tizimli stategiyalar yaratish anchagina o'rinni bo'ladi. Biz til o'rganish deganda barcha til mahoratlari: yozish, o'qish, tinglab tushunish, grammatika va gapiresh savodxonligini bir darajada yaxshilashni nazarda tutamiz. An'anaviy til o'rgatish metodlariga ko'ra esa o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi kommunikatsiya faqatgina darsliklar asosida, testli imtihonlarga tayyorlanish izmida olib boriladi. Bu esa ushbu 5 til mahoratini birday o'stirishda kutilgan natijalarga olib kelamaydi. Ammo so'nggi yillarda texnologik vositalar rivoji va turli o'rganish jarayonlariga moslashuv oqibatida bir qancha innovativ til o'rganish mertodlari ommalashmoqda. Quyida ularga misollar va tushuntirishlar keltiriladi:

1. Turli o'yinlar: interaktiv o'yinlar yoki mashg'ulotlar orqali til o'rganish bu jarayonni yanada qiziqarli qilishga va osonlashtirishga yordam beradi. Bu kabi platformalarga Duolingo va Babbel kabilarni misol sifatida keltirish mumkin.
 2. Online dasturlar: HelloTalk singari internet platforma va ilovalari til o'rganuvchilarni dunyoning turli burchaklaridan turib o'zaro aloqa almashinuviga xizmat qiladi. Bu esa o'z navbatida o'rganuvchilarga tilning asil so'zlashuvchilari bilan istalgan vaqtda suhbat qurishiga imkon yaratadi.
 3. Shaxsiy loyihamalar tayyorlash: bunda til o'rganayotgan o'quvchi va talabalarga o'z shaxsiy loyihamalar ustida ishlashi talabi qo'yiladi. Ular shu tilda ma'lum mavzuda video, audio materiallar tayyorlash, blog yuritish yoki online muhokamalarga jalb qilinishi va bu orqali o'z til mahoratlari ustida mustaqil ishlashlari mumkin.
 4. Madaniyati bilan yaqinlashish: bunda tilni shunchaki grammatika qoidalari asosida emas, balki aynan tili o'rganilayotgan millatning, mamlakating o'ziga xos va e'tiborli jihatlariga o'quvchi diqqati tortish va shu orqali unga osonoroq ta'sir etish mumkin bo'ladi. Masalan, Liz va John Soars tomonida ishlab chiqilgan Headway kitoblarining yondosh „Madaniyat kitobchasi“ (Culture book) bu borada yaxshigina yutuqlarga erishganiga guvoh bo'lingan.
 5. Aralash usulda: bunda raqamli texnologiyalar alohida o'rinn turatadi. Ya'ni an'anaviy sinfxona metodlarini video konferensiyalar va elektron darsliklarga uyg'unlashtirish orqali til o'rgatuvchi va o'rganuvchiga ham birday qulaylik yaratadi va o'z ustida amaliy ishlashlariga rag'batlantiradi.
 6. Refold.la: bu usul guruh yoki sinf holatida til o'rgatishda yanada yorqin samara beradi. Tilni grammatika e'tibor qaratmay, balki ongli ravishda miyaga joylab olish borasidagi bu metodda til o'rganuvchilardan aktiv va sog'lom raqobatni yuzaga keltirish talab etiladi. Masalan, guruhlarga yoki juftliklarga bo'lingan holda turli jamoaviy mashg'ulotlar va yutuqli musobaqalar tashkil etish.
- „Refold.la“ - tilni o'rganish emas, balki ongli ravishda o'zlashtirish demakdir. Bu usul

Yapon tilini 2 yilda mustaqil va grammatisiz o'zlashtirgan Matt (MattvsJapan) tomonidan ishlab chiqilgan va bugungi kunga kelib asosli metodlardan biri sifatida tillarni o'zlashtirishda foydalaniladi.

Jamiyatimizda, ayniqsa, yoshlar orasida bir qadar mashhurlikka erishgan Bookomy kitoblarining ham afzalliklariga nazar tashlasak, uning til o'rgatishdagi ahamiyati qulaylik yaratganligi- istalgan vaqtida foydalana olish, audio-lingvistik tuzilmaga ega va zamonaviy texnologiyalarga bog'langanligida ekaniga guvoh bo'lamiz. Demakki, til o'rgatishda qulaylik va innovativ g'oyalarni tatbiq qilish tilni o'rganish jarayonida qisqa muddatda katta natijaga yetaklaydi.

Bugun jahonning til o'qitish texnologiyalari bo'yicha yetakchi mamlaklatlarining- Fransiya, Germaniya, Yaponiy, Ispaniya - ayni sohadagi tajribalaridan ma'lum bo'ladiki, raqamli dunyoda raqamlashtirigan o'quv metodlari ularni bu borada yuksaltirdi. Ya'ni Fransiya ta'lim tizimida tilni „immersion“ usulida o'zlashtirish va bunda zamonaviy internet platformalaridan foydalannish ancha yillik an'anadir. Germaniya esa alohida e'tiborni millat madaniyati bilan uyg'unlashtiruv va til o'rgatuvchilar uchun tizimli tayyorlovga qaratadi. Vaholanki, yuqori sifatdagi til markazlari ham bunga yetralicha imkon yarata oladi. Yaponiyada til o'rgatish, asoson, texnologik vositalar bilan bog'langan. Bunda multimedia ilovalari, til almashinuv dasturlari va interaktiv platformalar o'rganuvchilarga tajriba uchun zamin bo'ladi. Ayniqsa, Ispaniyada Instituto Cervantes Ispan hukumati tomonidan yuritiladigan tashkilot bo'lib, dunyo bo'y lab ispan tili so'zlashuvchilari uchun jahonning turli til o'rgatish markazlariga bog'langan holda madaniy almashinuvlarni ta'minlaydi. Finlandiya esa tamoman o'zgacha yo'l tutgan bo'lib, raqamli uskunlar, ilovalar bilan emas balki to'g'ridan-to'g'ri talaba ehtiyojidan kelib chiqib tajribalar yaratishni afzal biladi. Ushbu keltirilgan mamlakatlar o'zining yuqori sifatli ta'lim tizimi bilan tan olingan bo'lsa-da, aytib o'yish kerakki, til o'qitish haqda so'z borar ekan, bunda turli davlatlarda turlicha yondashuvlar va kuchli jihatlari bor hamda ularda o'zlashtirish, tajribalarda sinab ko'rishga arziydigan global metodlar ham talaygina.

Foydalanilgan manbalar:

1. Cora Lindsay, Paul Knight. Learning and teaching English. Oxford University Press. 2007
2. B. To'xliyev, M.Shamsiyeva, T.Ziyodova. O'zbek tilini o'qitish metodikasi. Toshkent-2006
3. Eric Bodnar. The immersion method. Japan-2006, January
4. <https://news.ycombinator.com/item?id=28360072>
5. <https://elearningindustry.com/>
6. <https://en.bigbyteedu.com/>
7. <https://www.memrise.com/>
8. <https://smartico.ai/>

Республика	Узбекистан
Город, область	Город Ташкент
Фамилия	Раззакова
Имя	Мадина
Отчество	Икболжон кизи
Ученая степень	Нет
Ученое звание	Нет
Место работы	Студентка 2-курса УзГУМЯ
Номер телефона	+998906881232
Номер телефона (моб.)	+998906881232
Адрес электронной почты	madinarazzaqova20@gamil.com
Направление (секция)	3-СЕКЦИЯ : <i>Инновационные подходы и мировой опыт преподавания иностранного языка.</i>
Тема статьи	Использование цифровых технологий в классе и эффективный способ изучения языка под названием погружение